

## AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

*O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi  
ish yurituvchi kotib 1-darajali yurist  
Matmurotov Bekturdi Sadullayevich*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Axborot texnologiyalari vositasida sodir etiladigan jinoyatlar tushunchasi, ularning zamonaviy jamiyat hayotiga ta'siri va bu jarayonda inson huquqlarini ta'minlash masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida axborot xavfsizligini ta'minlash, kiberjinoyatlarni oldini olish hamda inson huquqlarini himoya qilish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Axborot texnologiyalari (IT), Korrupsiya, kiberjinoyat, kvalifikatsiya, xavfsizlik.

Axborot texnologiyalari (IT) vositasida sodir etiladigan jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikni takomillashtirish jamiyatni raqamlashtirish sharoitida dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu yo'nalishdagi turli o'zgarishlar kiberjinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, kriptoaktivlar bilan bog'liq noqonuniy operatsiyalarni jazolash hamda transchegaraviy kiberxavfsizlikni mustahkamlashni talab qiladi.

Axborot tarqatishning eng asosiy hamda qulay vositasi sifatida hozirgi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar yetakchilik qilmoqda. Ular foydalanuvchilar soni hamda uzatish tarmog'ining kengligi jihatidan axborot yoyish boshqa vositalaridan birmuncha o'zib ketdi deyish mumkin. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan aytilgan fikrlar ham buning tasdig'i: "Birinchil navbatda media tarmoqlari faoliyati samarasini oshirish, ularni xalq bilan muloqotning ishonchli vositasiga aylantirish, zamonaviy axborot xizmatlari bozorini, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish singari dolzarb masalalar doimiy e'tiborimiz markazida bo'lishi kerak". Jahon hamjamiyati bilan bir qatorda mamlakatimiz ham butunjahon internet tarmog'iga ulangan va axborot oqimining bevosita istemolchisi hisoblanadi. Xususan, "Gazeta.uz nashrining xabar berishicha 2020-yil oxirgi choragi ma'lumotlari bo'yicha, O'zbekistonda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni – 22.1 milliondan oshgan.<sup>1</sup>

Shundan mobil internet foydalanuvchilari soni – 19 millionni tashkil etmoqda". Bu aholi katta qismining har kunlik axborotni olishi hamda turli yo'sinda talqin qilishidan dalolat beradi. Ushbu jarayonlar jamiyat va davlat, fuqorolar oldiga bir qator

<sup>1</sup> O'zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari. #internet. gazeta.uz/oz/2020/12/11. Jamiyat. 2020.

dalzarb vazifalarni qo'yadi. Axborot xavfsizligini ta'minlash hamda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish shular jumlasidandir.

Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi 2025-yil 5-mart kuni o'tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan vazifalarni samarali ijro etish hamda axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlar (keyingi o'rinlarda — kiberjinoyatlar)ga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirish maqsadida qator reja tadbirlar ishlab chiqilishi bu sohadagi keng ko'lamli ishlar olib borilayotganidan ko'rsatadi.<sup>2</sup>

O'zbekistonda kiberxavfsizlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2022 yilda "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Qonunning 3-moddasida kiberjinoyatchilik, kibermakon, kibertahdid, kiberxavfsizlikkabi tushunchalarga ta'rib berib o'tilgan.

Qonunning 4-moddasida esa Kiberxavfsizlikni ta'minlashning asosiy prinsiplari sanab o'tilgan:

- qonuniylik;
- kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishning ustuvorligi;
- kiberxavfsizlik sohasini tartibga solishga nisbatan yagona yondashuv;
- kiberxavfsizlik tizimini yaratishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokining ustuvorligi;
- O'zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlikni ta'minlashda xalqaro hamkorlik uchun ochiqqligi.<sup>3</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori (PQ-153-son, 30.04.2025-y.) qabul qilindi. Qarorga ko'ra, Ichki ishlar vazirligi O'zbekistonda kiberjinoyatlarga qarshi kurashish yo'nalishida vakolatli organ etib belgilandi. O'z kundalik faoliyatini tashkil etishda mijozlarining manfaati va moliyaviy xavfsizligini ta'minlash banklar, to'lov tizimi operatorlari va to'lov tashkilotlarining ustuvor vazifasi sifatida ko'rsatildi.<sup>4</sup>

Shuningdek, kiberjinoyatni sodir etishda o'z nomidagi bank kartasi, bank hisobraqami, SIM kartasi hamda elektron hamyonidan foydalanishga yo'l qo'ygan shaxslar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilanadi. Banklar, to'lov tizimi

<sup>2</sup> <https://lex.uz/uz/>

<sup>3</sup> S.Gulyamov, O.Kutliyev, M.Akbarova "Statistika organlarida axborot xavfsizligini ta'minlash" Toshkent-2017y.

<sup>4</sup> <https://yuz.uz/uz/news/>

operatorlari hamda to'lov tashkilotlarining axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik talablariga rioya etmaganligi natijasida sodir etilgan kiberjinoyat oqibatida kelib chiqqan moddiy zararni ular hisobidan undirish tartibi joriy etiladi. Jinoyat qonunchiligi bilan axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar hamda pul mablag'lari va boshqa mol-mulkni jalb etishga doir noqonuniy faoliyat uchun belgilangan jazo choralari kuchaytiriladi. Jinoyat sodir etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish javobgarlik hamda jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilanadi.

Axborot texnologiyalari jadallik bilan rivojlanayotgan zamonaviy jamiyatda axborot xavfsizligi va kiberhuquq sohasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, axborot texnologiyalari vositasida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish va ular uchun jinoyiy javobgarlikni takomillashtirish zarur. Maqolada jinoyatchilikning yangi turlari, jumladan kiberhujumlar, ma'lumotlarni o'g'irlash, elektron pul o'tkazmalari bilan bog'liq jinoyatlar tahlil qilingan. Shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish, jinoyatlarni aniqlash va oldini olish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Jinoyiy javobgarlikni kuchaytirish orqali axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish imkoniyati yaratiladi va jamiyatning axborot xavfsizligi ta'minlanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekistonda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari. #internet. gazeta.uz/oz/2020/12/11. Jamiyat. 2020.
2. <https://lex.uz/uz/>
- 3.S.Gulyamov, O.Kutliyev, M.Akbarova "Statistika organlarida axborot xavfsizligini ta'minlash" Toshkent-2017y.
4. <https://yuz.uz/uz/news/>